



Xolisxon XUSAINOVA,

Tayanch doktorant, Nukus davlat pedagogika instituti, Nukus, O‘zbekiston

E-mail: xhusainova@bk.ru <https://orcid.org/0009-0003-2585-5005>

O‘zRFA katta ilmiy xodimi, PhD G.Andaniyozova taqrizi asosida

O‘ZBEK VA NEMIS TILLARIDA SO‘Z TURKUMLARINI TASNIFLASHNING KATEGORIAL MEZONLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nemis va o‘zbek tillarida so‘z turkumlarini guruhlashning nazariy asoslari va kategorial mezonlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikki tilda ham tasniflash jarayoni semantik, morfologik va sintaktik belgilarning o‘zaro uyg‘unligiga asoslangan "aralash tizimlar" orqali amalga oshirilishi aniqlangan. Nemis tilida morfologik va sintaktik ierarxiya markaziy o‘rin tutsa, o‘zbek tilida leksik birliklarning "unikal" tabiati va ma‘naviy tahlil bosqichlarining ko‘p qirraliligi ustuvorlik qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: so‘z turkumi, semantik mezon, morfologik mezon, sintaktik funksiya, pragmatik jihat, aralash tizim, transpozitsiya, agglutinatsiya, fleksiya.

КАТЕГОРИАЛЬНЫЕ КРИТЕРИИ КЛАССИФИКАЦИИ ЧАСТЕЙ РЕЧИ В УЗБЕКСКОМ И НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительно-типологический анализ теоретических основ и категориальных критериев классификации частей речи в немецком и узбекском языках. В ходе исследования было выявлено, что в обоих языках процесс классификации осуществляется через «смешанные системы», основанные на взаимодействии семантических, морфологических и синтаксических признаков. Обосновано, что если в немецком языке центральное место занимает морфологическая и синтаксическая иерархия, то в узбекском языке приоритет отдается «уникальной» природе лексических единиц и многогранности этапов семантического анализа.

Ключевые слова: части речи, семантический критерий, морфологический критерий, синтаксическая функция, прагматический аспект, смешанная система, транспозиция, агглютинация, флексия.

CATEGORIAL CRITERIA FOR PARTS OF SPEECH CLASSIFICATION IN UZBEK AND GERMAN

Annotation

This article provides a comparative-typological analysis of the theoretical foundations and categorial criteria used for classifying word classes in German and Uzbek. The study reveals that in both languages, the classification process is implemented through "mixed systems" (Mischsysteme) based on the integration of semantic, morphological, and syntactic features. It is established that while morphological and syntactic hierarchies play a central role in German, the Uzbek language prioritizes the "unique" nature of lexical units and a multi-layered semantic analysis approach.

Keywords: word classes, semantic criteria, morphological criteria, syntactic function, pragmatic aspect, mixed systems, transposition, agglutination, flexion.

Kirish. O‘zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, agglutinativ til hisoblanadi. Nemis tili esa roman-german tillar oilasiga kiradigan flektiv tildir. So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi jahon tilshunsligi bilan bir qatorda ushbu qiyoslanayotgan tillar tilshunosligida ham alohida ahamiyatga ega mavzulardan biridir. Nemis va o‘zbek tillarida so‘z turkumlarini tasniflash mezonlari mavzusini o‘rganish dolzarbligini bir necha sabablar bilan ko‘rsatish mumkin:

Ikkala tilning o‘ziga xos tabiatini chuqurroq tushinishga yordam berish;

Kategorial nomutanosiblikni ilmiy asoslash;

Bir tildagi so‘z turkumining ikkinchi tilda qaysi grammatik vosita bilan berilishini ilmiy aniqlaydi va bu orqali tarjimashunoslik va lug‘atshunoslikda sifatning oshishiga hissa qo‘shish;

Komputer lingvistikasi, sun‘iy intellekt va mashina tarjimasini kabi dasturlarda so‘z turkumlari mezonlarini aniq belgilash kompyuter tushunadigan modellarni yaratishda yordam berish.

Ushbu dolzarb masalalardan kelib chiqib maqolaning maqsadini quyidagicha belgilash mumkin: flektiv va agglutinativ tillar bo‘lgan ikki tilning so‘z turkumlari

tizimidagi umumiy va xususiy jihatlarini aniqlash hamda ularning o‘zaro muvofiqlik darajasini asoslab berish. Va tadqiqot o‘z oldiga quyidagi vazifalarni belgilab oldi:

Har ikki tilda so‘zlarni turkumlarga ajratishda qaysi mezon ustuvor ekanligini aniqlash;

Grammatik kategoriyalarni tahlil qilish;

Topologik farqlarni tizimlashtirish: o‘zbek tili so‘z turkumlarida mavjud bo‘lmagan (yoki aksincha) hodisalarni ko‘rsatib berish.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda so‘zlarni tasniflash masalasi antik davrga borib taqaladi. Platon (mil.avv. 428-348) gapning mantiqiy tuzilishiga qo‘shgan hissasiga ko‘ra so‘zlarni ikki guruhga ajratgan: Onoma (narsalarning nomlari: Ot), va Rhema (bayonlar: Fe‘l). Biroq, bu davrda hali aniq grammatik tushunchalar bo‘lmagan, - deb izohlaydi Arens [1]. Chunki,- deydi u, "kuzatish obyekti faqat tilning o‘zi emas, so‘z va voqelik, hukm va gap doimiy ravishda bir-biri bilan aralashib ketgan". Platonning shogirdi Aristotel ham til birliklariga grammatik jihatdan emas mantiq va she‘riyat nuqtayi nazardan qaragan. U onoma va rhema tushunchalariga yuklamalar, bog‘lovchilar yoki "ma‘nosiz so‘zlar" sinfini ham qo‘shgan.

“G‘arbning birinchi grammatika muallifi” nomini olgan Dionisiy Traks (mil.avv. taxminan 170-90) so‘z turkumlarini sakkizta deb ko‘rsatadi: ot, fe‘l, sifatdosh, artikel, olmosh, predlog, ravish va bog‘lovchi. Bu tizim bugungi kunda ham nemis tili so‘z turkumlari tasnifining asosi bo‘lib xizmat qiladi. So‘z turkumi uchun “Redeteil” (nutq bo‘lagi) atamasining ishlatilishi ham uning nomi bilan bog‘liq deb yozadi Christina Römer [10]. Dionisiyning grammatikasi hind-yevropa tillarida birinchi grammatika hisoblangan. U so‘z turkumlarini yunon tili misolida turlanish (fleksiya) nuqtayi nazardan ta‘riflaydi. Ot – kelishik hosil qiluvchi so‘z turkumi, u jins, tur, shakl, son va kelishik kabi grammatik xususiyatiga ega, ma‘no nuqtayi nazardan narsa, harakat ma‘nolarini anglatadi, 7 xil yo‘l bilan yashalish xususiyatiga ega degan mezonlar asosida tasniflaydi. Traks ushbu xususiyatlarni boshqa so‘z turkumlari uchun qo‘llanmagani sababli o‘tmishda ko‘p tanqidlarga uchragan va mezonlari aniq bo‘lgan so‘z turkumlari tasnifi Knobloch va Schäder kabi olimlar tomonidan talab qilingan[4].

Stepanova va Helbig semantik mezonning yetarli emasligini ta‘kidlaydilar[9]. Ularning fikricha, so‘z turkumlari obyektiv borliqdagi narsalarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri aksi emas, balki inson tafakkurining mahsulidir. Masalan -ung suffiksli otlar (Anwendung – qo‘llash, foydalanish yoki Erziehung-tarbiya) predmetni emas, balki harakat yoki holatni anglatishi semantik tasnifning zaifligini ko‘rsatadi.

Dudenredaktion (2005) tomonidan taklif etilgan 7-nashrda so‘z turkumlari leksik va sintaktik birliklar sifatida qat‘iy ajratilgan bo‘lib, unda beshta asosiy leksik sinf (ot, fe‘l, sifat, olmosh va o‘zgarimas so‘zlar) morfologik belgilar asosida tabaqalanadi [6].

“Nemis tili so‘z turkumlari bo‘yicha qo‘llanma” (Handbuch der deutschen Wortarten) asarida esa so‘z boyligi 24 ta bobga bo‘lingan bo‘lib, unda boshqa manbalarda so‘z turkumi sifatida qayd etilmaydigan funksiyalar (masalan, Anafora) ham alohida ko‘rib chiqilgan. Ushbu asarda nemis tili so‘z turkumlarining yakuniy va aniq soni ko‘rsatilmagan [5].

Turkologiya va o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlariga oid tadqiqotlarning boshlanishi Mahmud Qoshqariy nomi bilan bog‘liq. U o‘zining “devonu lug‘otit turk” va “Javohir-un nahvi fi-lug‘otit turki” asarlari bilan arab tilshunosligini rivojiga o‘z hissasini qo‘shadi va uning tekshirish motodlarini turkiy tillarda ijobiy qo‘llaydi [2].

Mahmud Qoshqariy so‘z turkumlarini dastlab uch turkumga ajratadi: Harf, ism va fe‘l turkumlariga[7]. Qoshqariydan keyingi davrda tilshunoslik sohasida izlanishlar olib borgan qomusiy olim, bu Alisher Navoiy hisoblanadi. Navoiyning “Muhokamatul lug‘atayin” asari o‘zbek tilshunosligi tarixida so‘z turkumlarini o‘rganish masalasida alohida o‘rin tutadi. O‘zbek tilshunosligi tarixida Navoiydan keyin, bir necha asr o‘tib XX asrga kelganda o‘z tarixida yangi davrni boshlaydi.

Abdurauf Fitrat yangi davr o‘zbek tilshunosligida dastlabki ilmiy grammatikani tuzgan, shuningdek, birinchi bo‘lib o‘zbek tili so‘z turkumlari tizimini tahlil va tasnif etgan olimdir [3]. “Turkologiyada so‘z turkumlarini keng miqyosda o‘rganish 1952 yilgi tilshunoslik masalalar bo‘yicha o‘tkazilgan munozaradan so‘ng boshlandi” - deb yozadi prof. J. Eltazarov. Bu fikriga dalil sifatida “Voprosi yazikoznaniya” jurnalida 1952-yil 2-sonida G.D.Sanjeevning “Oltay tillarda so‘z turkumlari muammosiga doir nomli maqolasini keltiradi[2].

Shu davrdan boshlab o‘zbek tilshunosligida so‘z turkumlarini ilmiy asosda, monografik yo‘nalishda o‘rganish yangi bosqichga ko‘tarilgan. Bu davrda ayrim so‘z turkumlari bo‘yicha ixtisoslashgan fundamental kuzatishlar maydonga keladi: A. G‘ulomov fe‘l, S.Fuzailov ravish, X.Komilova son va olmosh, Sh. Abdurahmonov yordamchi so‘zlar to‘risidagi

kuzatishlarni e‘lon qiladilar va mazkur kuzatishlar 1957 yilda F.Kamolov tahriri ostida “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili” kitobida umumlashadi. Bundan keyingi davrlarda ham o‘zbek tilida so‘z turkumlari borasida bir qator ilmiy ishlar olib borildi. Eng so‘ngi izlanishlardan biri sifatida 2008yilda shulshunos olim R.R Sayfullayeva muharrirligi ostida “Zamonaviy o‘zbek tili. Morfologiya” nomli monografiyani misol qilish mumkin. Unda o‘zbek tilida so‘zlarni tasniflashning mezonlari haqida atroflicha ma‘lumot berilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi nemis va o‘zbek tillarining tizimli-struktural tahliliga tayanadi. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

Qiyosiy-tipologik metod. Bu metod tadqiqotning bosh yo‘nalishi bo‘lib, nemis va o‘zbek tillaridagi so‘z turkumlari tizimining universal va o‘ziga xos jihatini aniqlash imkonini beradi. Ikki xil tipologik tuzilishga ega bo‘lgan tillardagi turkumlararo mutanosiblik va farqlar aynan shu metod yordamida tahlil qilinadi.

Uch bosqichli tahlil tamoyili: Kelib chiqishi jihatdan qarindosh bo‘lmagan tillarda so‘z turkumlarini tasniflashda aralash tizim metodologiyasi qo‘llaniladi. Bunda bir vaqtning o‘zida uchta yoki to‘rtta asosiy jihat inobatga olinadi.

Morfologik mezon: So‘zning fleksiya (turlanish va tuslanish) qobilyati;

Sintaktik mezon: So‘zning gapdagi vazifasi va uning boshqa so‘zlar bilan birikish imkoniyati;

Semantik mezon: So‘zning umumlashgan kategorik ma‘nosi (predmetlik, belgi, harakat).

Tadqiqotning materiallari va manblari: Tadqiqotning empirik bazasini nemis tilidagi “Morphologie der deutschen Sprache” va „Duden- Die Grammatik“ hamda o‘zbek tilidagi “Zamonaviy o‘zbek tili morfologiyasi” va boshqa akademik manbalarda tashkil etadi.

Miqdoriy va mantiqiy tahlil: Tizimlar orasidagi o‘xshashliklar darajasini aniqlashda mantiqiy umumlashtirish va guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida nemis tili grammatikasida so‘z turkumlarini aniqlashda qo‘llanadigan mezonlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy tilshunoslikda so‘z turkumlarini bitta mezon (masalan, faqat semantik yoki faqat morfologik) asosida tasniflash yetarli emas. Nemis tili ham turlanadigan, ham turlanmaydigan so‘z turkumlarini o‘z ichiga olganligi sababli, faqat bitta mezonga asoslangan tizimlar unchalik samarali emas, shuning uchun odatda bir necha mezonlardan foydalanadigan aralash tizimlar qo‘llaniladi. Bu qisman tizimli, qisman tizimsiz tarzda amalga oshiriladi. YA‘ni, “bunday aralash tizimlarda barcha yoki tanlab olingan turkumlar uchun ikki yoki undan ortiq mezonlar bir vaqtda yoki ketma-ket, bir xil ahamiyatda yoki turli darajadagi ustuvorlikda qo‘llaniladi [4]. Bundan kelib chiqib shu aniq bo‘ldiki, nemis tilida so‘zlarni tasniflashda ko‘p hollarda aralash tizimlar qo‘llaniladi.

Tadqiqot natijasida so‘z turkumlarini belgilovchi to‘rtta asosiy mezon va ularning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi:

Semantik mezon – bu mezon so‘zlarning lug‘aviy ma‘nosiga tayanadi. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, semantik mezon ko‘pincha munozarali bo‘lib, u so‘z turkumlarini aniq chegaralash uchun yetarli emas. Masalan, otlar nafaqat buyumlarni, balki harakat, holat yoki natijani ham anglatishi mumkin.

Morfologik mezon - nemis tili kabi hind-yevropa tillari uchun bu mezon markaizy o‘rin tutadi. So‘zlarning o‘zgaruvchanligi (fleksiya) asosida so‘z turkumlarini “o‘zgaradigan” (+flektierbar) va o‘zgaramaydigan (-flektierbar) guruhlarga bo‘linadi. Masalan, otlar turlanishi (deklination) va artikel bilan qo‘llanishi orqali ijobiy xarakterlanadi.

Sintaktik mezon: So'zlarning gapdagi vazifasi va tarqalishiga (distribusiya) asoslanadi. Sintaktik jihatdan so'zlar uchta asosiy guruhga bo'linadi:

Satzrepräsentanten (gap bo'laklari), Wortgruppenrepräsentanten (so'z turkumlari) (ot, fe'l, sifat) va funksional elementlar (partikullar, yordamchi so'zlar).

Pragmatik mezon: bu mezon til belgilarining so'zlovchi va nutq vaziyati bilan bog'liqligini o'rganadi. Olmoshlar ko'pincha anafora (takrorlanish) deksis (ko'rsatish) kabi pragmatik xususiyatlarga ko'ra subklassifikatsiya (kichkina guruhlarga bo'linish) qilinadi [10.,4.,6.,8.].

Nemis tilida so'z turkumlarini tasniflash bo'yicha umumiy shunday xulosaga kilish mumkin, birinchi navbatda morfologik va sintaktik belgilarga tayanish, qo'shimcha klassifikatsiya uchun esa semantik va pragmatik mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Endi o'zbek tilida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga yuzlanadigan bo'lsak, o'zbek tili leksik qatlamini turkumlarga ajratishda an'anaviy yondashuvlar va zamonaviy tilshunoslikdagi yangi tamoyillar qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar o'zbek tili grammatik qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini yangi rakursdan yoritishga imkon beradi.

Tadqiqot natijasida aniqlandiki, leksik birliklarni tasniflashda ma'noviy, sintaktik va morfologik mezonlar turli ierarxik chuqurlikka ega:

Ma'noviy tasnif eng batafsil bo'lib, u 10 bosqichli bo'linishni (tizimdan tortib alohida leksema va nutqiy bosqichgacha) o'z ichiga oladi.

Sintaktik tasnif 4 bosqichda cheklanadi.

Morfologik tasnif esa atigi 2 bosqichda amalga oshiriladi. Bu holat o'zbek (turkiy) tilining agglutinatив qurilishi va forma yasash shakllarining umumiyliги tufayli morfologiya sintaksisga qaraganda ko'proq umumlashgan va universal ekanligidan dalolat beradi.

O'zbek tilida so'z turkumlari orasida o'zaro ko'chish hodisasi ham bor. Lisoniy ko'chishda so'z o'zining turkumiga xos xususiyatlarini butunlay yo'qotib, boshqa turkumga o'tadi (masalan, ko'ra, qarab – ko'makchiga; chiniqqan – sifatga). Nutqiy transpozitsiya esa ko'proq uslubiy bo'yoqdorlik va g'ayritabiyy qo'llanishlar bilan bog'liqdir.

Demak, tadqiqot davomida shu natijaga erishdikki, leksik birliklar uch xil asosda qayta tasniflandi:

Semantik mezon asosida:

a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish va taqlid);

b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z (olmosh va so'z-gap);

c) hamda lug'aviy ma'nosiz so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)

Morfologik mezon asosida: bu tasnifga binoan, so'z, yuqorida aytilganidek, ikki guruhga ajraladi:

o'zgaruvchi leksema (grammatik shakl qabul qiluvchi) – fe'l, ot, sifat, son o'zgarimas leksemalar. (grammatik shakl qabul qilmaydigan) – ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, so'z-gap.

Sintaktik mezon asosida: leksemaning sintaktik tasnifida, asosan, uning nutqda boshqa leksema bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi [8.,2.].

gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'z: undov, modal, so'z gap

gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh.

sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'z: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida qiyoslanayotgan tillarda quyidagi o'xshash va farqli jihatlarni keltirib o'tmoqchimiz.

Umumiy o'xshashliklari: Har ikki tilda ham so'z turkumlarini tasniflashda an'anaviy uchlik mezon - semantik, morfologik va sintaktik asoslar yetakchilik qiladi;

Morfologik jihatdan ikkala tilda ham so'zlar avvalo "o'zgaruvchan" (+flektierbar) va "o'zgarimaydigan" (-flektierbar) guruhlarga ajratiladi.

Sintaktik vazifasiga ko'ra har ikki tizimda so'zlarning gapdagi vazifasi (ega, kesim, aniqlovchi) turkumlarni farqlashda muhim o'rin tutadi;

Bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalar har ikki tilda ham lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, sintaktik aloqa vositasi sifatida xizmat qiluvchi guruhlar sifatida qayd etilgan.

O'zbek va nemis tillarining tipologik qurilishi (agglutinatив va flektiv) tasnif bosqichlarida sezilarli farqlarni keltirib chiqaradi:

Farqlash asosi	Nemis tili tizimi	O'zbek tili tizimi
Morfologik mezon bo'yicha	Morfologik mezon birinchi darajali bo'lib, u tillarni tipologik klassifikatsiya qilishda markaziy rol o'ynaydi.	Morfologik tasnif atigi 2 bosqichda (o'zgaruvchi/o'zgarimas) tugaydi, chunki shakl yasash tizimi juda universal va doimiydir.
Semantik tasnif	Semantik mezon munozarali va kamroq qo'llaniladi, chunki u so'z sinflarini aniq ajratib bera olmaydi.	Ma'noviy tasnif juda batafsil bo'lib, u leksemaning nutqiy bosqichigacha boradigan 10 ta bosqichni o'z ichiga oladi
So'z-gaplar mavqeyi	Nemis tili manbalarida so'z-gaplar alohida guruh sifatida emas, balki sintaktik funktsiya doirasida ko'riladi.	O'zbek tilida so'z-gaplar (tasdiq-inkor, modal so'zlar) alohida "oraliq so'zlar" blokiga ajratiladi.
Olmoshlar tabiati	Olmoshlar asosan pragmatik mezon (ko'rsatish, bog'lash) asosida subklassifikatsiya qilinadi.	Olmoshlar o'zi ishora qilayotgan turkumning barcha o'zgarish xususiyatlarini qabul qilgani uchun ularni "ot-olmosh", "fe'l-olmosh" kabi turlarga ajratish lozimligi ta'kidlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Arens, Hans. Sprachwissenschaft. Der Gang ihrer Entwicklung von der Antike bis zur Gegenwart. Freiburg; München: Verlag Karl Alber. 1969.
2. Eltazarov J. O'zbek va jahon tilshunosligida so'z turkumlarining o'rganilish tarixidan, monografiya. Samarqand. Ipak yo'li turizm xalqaro universiteti nashriyoti. 2021.
3. Fitrat. O'zbek tili qaidalari togrusida bir tajriba. Sarf. Birinchi kitab. 6 nchi basma. – Samarqand-Tashkent, 1930.
4. Knobloch, Clemens und Schaefer, Burkhard. Kriterien für die Definition von Wortarten. Berlin; 2000. Seiten 674–692.
5. Ludger Hoffman, Handbuch der deutschen Wortarten. Berlin. 2009.
6. Peter Eisenberg, Hermann Gelhaus. Duden Grammatik der deutschen Gegenwartssprache. Zürich, 1995.
7. Qoshg'ariy M. Devonu lug'otit turk t.I.- Toshkent: Fan 1960 485b.
8. Sayfullayeva R.R. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Monografiya. Toshkent-2008.
9. Stepanowa, Marija D. und Helbig, Gerhard. Wortarten und das Problem der Valenz in der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig: VEB Bibliographisches Institut. 1981.
10. Christine Römer, Morphologie der deutschen Sprache. Hubert & Co Göttingen. 2006.